

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Farg‘ona politexnika instituti
rektori _____ O‘.R.Salomov

Texnikum bitiruvchilarini Farg‘ona politexnika institutiga
yakka tartibdagi suhbat asosida qabul qilish bo‘yicha
BAHOLASH MEZONI
(Institut Kengashining 2022 yil 6 iyundagi 9-son qarori bilan tasdiqlangan)
QABUL BO‘YICHA MUTAXASSISLIKLAR

O‘rta maxsus professional ta’lim kodi mutaxassisliklari	Bakalavriat ta’lim kodi va yo‘nalishi
5.32.06.01-Buxgalteriya hisobi va audit	60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha)
	60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo‘jaligi)
	60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (temir yo‘l transporti)
	60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (avtomobil transporti)
5.51.02.02-Elekt stansiyalari, tarmoqlari va tizimlari	60710500-Energetika (tarmoqlar bo‘yicha)
5.51.05.01-Avtomobil transportiga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash	60712500-Transport vositalari muhandisligi (turlari bo‘yicha)
	60712500-Transport vositalari muhandisligi: avtomobil transporti
	60712500-Transport vositalari muhandisligi: elektromobil transporti
5.52.01.01-Kompyuter injiniring	60610500-Kompyuter injiniringi: Kompyuter injiniringi
	60610500-Kompyuter injiniringi: AT-Servis
	60610500-Kompyuter injiniringi: multimedia texnologiyalari
5.52.01.02-Dasturiy injiniring	60610600-Dasturiy injiniring
5.53.02.01-Geodeziya va kortagrafiya (funktsiyalar bo‘yicha)	60722500-Geodeziya, kartografiya va kadastr (funktsiyalari bo‘yicha)
5.53.06.01-Mashinasozlik texnologiyasi	60720800-Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishni jihozlash va avtomatlashtirish
5.53.10.01-Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasi va texnologiyasi (ishlab chiqarish)	60721200-Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ishlab chiqarish turlari)
5.54.02.01-Bino va inshootlar qurilishi	60730300-Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo‘yicha)
	60730300-Bino va inshootlar qurilishi (neft-gazni qayta ishlash sanoati ob‘yektlari)
	60730300-Bino va inshootlar qurilishi (transport binolari)
5.54.06.01-Avtomobil yo‘llari, ko‘priklar va ayrodromlar qurilishi	60730800-Yo‘l muxandisligi (soxalar va faoliyat turlari bo‘yicha)
	60730800-Yo‘l muxandisligi: ko‘priklar va tonnerlar
	60730800-Yo‘l muxandisligi: avtomobil yo‘llarini loyixalash
	60730800-Yo‘l muxandisligi: avtomobil yo‘llarini qurish
	60730800-Yo‘l muxandisligi: avtomobil yo‘llari ekspluatatsiyasi
	60730800-Yo‘l muxandisligi: shahar yo‘llari va ko‘chalari
	60730800-Yo‘l muxandisligi: avtomobil yo‘llaridagi sun‘iy inshootlar
	60730800-Yo‘l muxandisligi: avtomobil yo‘llarini arxitektura-landshaft konstruksiyalash
5.82.01.02-Tashishlarni tashkil etish va transportni boshqarish (avtomobil transporti)	61040100-Transport logistikasi (transport turlari bo‘yicha)
	61040100-Transport logistikasi (avtomobil transporti)

Farg‘ona - 2022

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Baholash mezonlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5812-sonli Farmoni asosida oliy ta'lim muassasalari huzurida tashkil etilgan texnikumlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022 yil 11 yanvardagi 17-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi NIZOM talablari asosida ishlab chiqilgan hamda texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni (keyingi o'rinlarda — bitiruvchilar) o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirish imtihonlarisiz, yakka tartibdagi suhbat orqali Farg'ona politexnika institutining 2-bosqichidan o'qishini davom ettirish uchun qabul qilish tartibini belgilaydi.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ro'yxati asosida texnikum bitiruvchilari Farg'ona politexnika institutiga kirish imtihonlarisiz, ushbu hujjatda keltirilgan baholash mezonlari asosida yakka tartibdagi suhbat orqali sinovdan o'tkaziladilar.

3. Quyidagi talablarga javob bergan talabalar yakka tartibdagi suhbat jarayonlarida qatnashish huquqiga ega bo'ladilar:

- bitiruvchi butun o'qish davrida o'quv semestrlari yakuniga ko'ra o'zlashtirish baholari «5 (a'lo)» va «4 (yaxshi)», biroq o'zlashtirish baholarining kamida 50 foizi «5 (a'lo)» bo'lishi;
- texnikumni tamomlaganiga kamida ikki yil bo'lgan bo'lishi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn ro'yxatdan o'tgan bo'lishi zarur.

2-bob. Suhbatning maqsadi

4. Suhbatning maqsadi oliy ta'limda o'qish istagini bildirgan texnikum bitiruvchilaridan mutaxassisligi bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, shaxsiy yutuqlari bilan o'rnak bo'la oladigan, mutaxassisligi bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorligi va mohiyatini tushuna olishi, ularni o'zining bo'lajak sohasi uchun tadbiq eta olishi hisoblanadi.

3-bob. Suhbat jarayoni tartibi

5. Yakka tartibdagi suhbat uchun savollar Farg'ona politexnika instituti qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

6. Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga quyidagi mavzular bo'yicha bittadan jami to'rtta savol beriladi:

- mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish;
- bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish);
- shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);
- tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi.

7. Bitiruvchi yakka tartibdagi suhbatga shaxsiy-kasbiy xususiyatlari, shaxsiy yutuqlari, muvaffaqiyatlari, sohasi hamda qo'shimcha bilim, tajriba va ko'nikmalarni o'zlashtirganlik bo'yicha erishgan natijalari hamda boshqa qiziqishlariga oid hujjatlarni portfolio tartibida tayyorlab kelishi talab etiladi.

8. Yakka tartibdagi suhbat bitiruvchining shaxsan ishtirokida o'tkaziladi. Bunda bitiruvchi suhbat uchun tayyorlab kelgan hujjatlari portfoliosini Suhbat komissiyasiga taqdim etadi.

9. Suhbatda ishtirok etish uchun talabgor suhbat komissiyasi tomonidan oldindan tasdiqlab qo'yilgan biletlardan birini ixtiyoriy ravishda tortadi. Tanlangan biletning raqamini Suhbat

komissiyasiga eshittiradi. Suhbat komissiyasi talabgorga suhbatga tayyorlanish uchun 30 minut vaqt beradi. Vaqt yakunlanganidan so'ng talabgor suhbatdan o'tadi.

10. Bitiruvchi tomonidan tayyorlangan portfolioning haqiqiylikiga bitiruvchi javobgar bo'lib, yakka tartibdagi suhbat jarayonida qabul komissiyasi a'zolari tomonidan o'rganib chiqiladi. Portfolioning haqiqiylikini bilish uchun talabgorga qo'shimcha savollar berilishi mumkin.

11. Suhbat jarayonida Suhbat komissiyasining har bir a'zosiga ushbu Mezonning **1-ilovasiga** muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchining suhbat natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rinlarda — suhbat natijalarini qayd etish varag'i) beriladi.

Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan suhbat natijalarini qayd etish varag'iga har bir bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbat natijasiga ko'ra tegishli ballar belgilab boriladi va imzolanadi.

12. Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar qo'shib jamalanadi hamda komissiya a'zolari soniga nisbatan o'rtacha ball hisoblab chiqiladi va shu asosida ushbu Mezonning 2-ilovasiga muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rinlarda — suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i) to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Talabgor tomonidan jami to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi 67 ball va undan yuqori bo'lganda abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida abituriyentlarga o'qib eshittiriladi.

13. Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan talabalikka tavsiya etilganlar belgilangan muddatlarda to'lov-kontrakt shartlari bajarilgandan so'ng oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishining 2-bosqichiga o'qishga qabul qilinadi.

14. Suhbat komissiyasi tomonidan talabgorlarni baholash mezonlari quyidagicha taqsimlanadi (3-ilova):

№	Savollik	Ball
1-savol. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish		
1.	Soha bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni tushunish darajasi	10 ball
2.	Soha bo'yicha islohotlarga munosabati	10 ball
3.	Sohani rivojlantirish bo'yicha islohotlarga taklif va tavsiyalari	5 ball
Jami		25 ball
2-savol. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)		
1.	Bakalavriatning mazkur yo'nalishini tanlashdan maqsadi va kelajak rejalari	10 ball
2.	Tanlagan kasbini jamiyatga va davlat rivojlanishiga ta'sirini tushunishi	10 ball
3.	Bu kasb orqali yuqori darajadagi muvaffaqiyatga erishgan mutaxassislarning bilishi	5 ball
Jami		25 ball
3-bo'lim. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda		

mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o‘z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)		
1.	Shaxsiy yutuqlarga erishganligi (portfolio hujjatlari asosida)	25 ball
Jami		25 ball
4-bo‘lim. Tanlangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko‘nikmalarning mavjudligi		
1.	Berilgan savolning mazmun mohiyatini tushuntirib berishi	20 ball
2.	Mazkur sohada ish tajribasining mavjudligi	5 ball
Jami		25 ball

4-bob. Apellyatsiya berish tartibi

15. Suhbatlar o‘tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyatsiya shikoyatlarini ko‘rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

16. Apellyatsiya shikoyatlari suhbat natijalari e‘lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida oliy ta’lim muassasasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yozma shaklda yoki Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn shaklda qabul qilinadi va appelyatsiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo‘lgan muddatda videoyozuv asosida ko‘rib chiqiladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

17. Mazkur baholash mezonini qo‘llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

18. Ushbu baholash mezoni talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar bilan Farg‘ona politexnika institutiga o‘qishga kirish imtihonlaridagi suhbat natijalarini qayd etish varag‘i

FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

(oliy ta‘lim muassasasi nomi)

(ta‘lim yo‘nalishi nomi)

(ta‘lim shakli)

(ta‘lim tili)

(sana)

T/r	Bitiruvchining F.I.O.	Bitiruvchiga qo‘yilgan ball					Suhbat komissiyasi a‘zosining imzosi
		Jami	1-savol	2-savol	3-savol	4-savol	
1.							
2.							
3.							
4.							
...	...	...	...	...	...	...	...

Suhbat komissiyasi a‘zosi:

(F.I.Sh)

(imzo)

**Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar bilan oliy ta'lim
muassasalariga o'qishga kirish imtihonlarida o'tkazilgan suhbatning yakuniy
natijalarini qayd etish varag'i**

FARG'ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

(oliy ta'lim muassasi nomi)

(ta'lim yo'nalishi nomi)

(ta'lim shakli)

(ta'lim tili)

(sana)

T/r	Bitiruvchining F.I.O.	Komissiya a'zolari soni	Jami to'plagan bali	O'rtacha bali
1.				
2.				
3.				
4.				
...	...	...	...	...

Suhbat komissiyasi raisi: _____
(F.I.Sh) (imzo)

Suhbat komissiyasi a'zolari: _____
(F.I.Sh) (imzo)

_____	_____
(F.I.Sh)	(imzo)
_____	_____
(F.I.Sh)	(imzo)
_____	_____
(F.I.Sh)	(imzo)
_____	_____
(F.I.Sh)	(imzo)
_____	_____
(F.I.Sh)	(imzo)

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022 yil 11 yanvardagi
17-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Texnikumlarni muvaffaqiyatli
tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalarining bakalavriyat
ta’lim yo‘nalishlariga suxbat asosida o‘qishga qabul qilish tartibi
to‘g‘risida”gi NIZOMga asosan Farg‘ona politexnika institutiga
topshirmoqchi bo‘lgan texnikum bitiruvchi o‘quvchilari uchun
tayyorlangan**

NAMUNAVIY SUHBAT SAVOLLARI

I. 5.32.06.01 - “Buxgalteriya hisobi va audit” mutaxassisligi bo‘yicha:

1. Ichlab chiqarish harajatlariga nimalar kiradi?
2. Inflyatsiyaning ma’nosini tushuntirib bering.
3. Byudjet tashkiloti va unga qaysi tashkilotlar kiradi?
4. Xo‘jalik hisobi necha turga bo‘linadi?
5. Auditorlik kasbi haqida tushunch bering
6. Iqtisodiyot tahlilida qo‘llaniladigan qanday usullarni bilasiz?
7. Asosiy vositalarning dastlabki qiymati deganda nimani tushunasiz?
8. Audit deganda nimani tushunasiz?
9. Buxgalteriya hisob shkalalari nechta va ular qaysilar?
10. Auditorlik tashkilotlari qanday faoliyat bilan shug‘ullanadi?
11. Asosiy vositalar deb nimaga aytiladi?
12. Schyotlar tizimi nima?
13. Asosiy vositalar shyotiga misol keltiring?
14. Nomoddiy aktivlar nima?
15. Amortizatsiya deganda nima tushuniladi?
16. Asosiy vositalar balansda qanday qiymatda aks ettiriladi?
17. Passiv schyotlarga misol keltiring?
18. Buxgalteriya hisobi ob’ektlariga nimalar kiradi?
19. Aylanma mablag‘larni aytib bering
20. Inventarizatsiya o‘tkazish qaysi BHMSga asosan o‘tkaziladi?
21. Hisob registrlarida xatolarning to‘g‘rilash usullari.
22. Kassadan dividend berilganda qanday buxgalteriya provodkasi tuziladi?
23. Kassadan ish haqi berilganda qanday buxgalteriya provodkasi beriladi?
24. Korxona kassasidan xizmat safari uchun naqd pul berilganda qanday buxgalteriya provodkasi beriladi?
25. Mol yetkazib beruvchilarga qarz valyuta schyotidan o‘tkazib berilganda qanday buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi?
26. Asosiy vositalar bepul olinganda qanday buxgalteriya provodkasi beriladi?
27. Tayyor mahsulot tannarxi hisobdan chiqarilganda qanday buxgalteriya provodkasi beriladi?
28. Kalkulyatsiya nima?
29. Davr xarajatlariga nimalar kiradi?
30. Ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatishda band bo‘lgan xodimlarning mehnat haqqi xarajatlarining xisoblanishi qanday buxgalteriya yozuvlarida aks ettiriladi?

31. Inventarizatsiya nima uchun kerak?
32. Olingan materiallar uchun mol yetkazib beruvchilarga pul to'landi. Bu xo'jalik jarayoni buxgalteriya balansidagi qaysi tip o'zgarish turiga kiradi?
33. Ustav kapitali korxona balansida qaysi tomon va bo'limida joylashadi?
34. Boshlang'ich balans nima maqsadda tuziladi?
35. Qanday holatda aktiv schet bo'yicha yakuniy qoldiq nolga teng bo'ladi?
36. Qanday holatda passiv schet bo'yicha yakuniy qoldiq bo'lmaydi?
37. Aktiv schetlar qanday schetlar bo'ladi?
38. Buxgalteriya hisoboti shakllarini sanab bering.
39. Boshlang'ich hujjatlarni tushuntirib bering.
40. Buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni aytib bering.
41. Hisob registri nima?
42. Moddiy javobgar shaxslar kimlar?
43. Buxgalteriya hisobida qo'llaniladigan o'lchov birliklarini aytib bering.
44. Buxgalteriya hisobining usullarini aytib bering.
45. Ikkiyoqlama yozuv haqida nima bilasiz?
46. Buxgalteriya hisobi predmetini tushuntirib bering.
47. Asosiy vositalar bo'yicha qanday eskirish usullarini bilasiz.
48. Debitor qarzdorlik tushunchasini ma'nosini ayting.
49. Kreditor qarzdorlik tushunchasini ma'nosini ayting.
50. Mahsulot tannarxi tarkibiga qanday harajatlar kiradi?

II. 5.51.02.02 - "Elektr stantsiyalari, tarmoqlari va tizimlari"

mutaxassisligi bo'yicha:

1. Elektr toki to'g'risida tushuncha bering.
2. Ohm qonunini tushuntiring.
3. Aluminiy va misning xossalari.
4. Dielektriklar haqida tushuncha bering.
5. Sinxron mashinalarning qanday turlari mavjud.
6. Asinxron mashinalarni ish rejimlarini aytib bering.
7. O'lchov xatoliklari deganda nimani tushunasiz.
8. O'lchov transformatorlarining vazifalarini tushuntirib bering.
9. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari.
10. Geotermal va shamol elektr stantsiyalari.
11. Elektr iste'molchilarni ishonchlilik bo'yicha tabaqalanishi.
12. Elektr ta'minot sxemalari.
13. Kabellarni trasheyalarda joylashtirish.
14. Transformatorlar sovitish tizimi montaji.
15. Ajratgichlar haqida ma'lumot bering.
16. Yerga ulash qurilmalar montaji qanday amalga oshiriladi?
17. Reaktorlar montajini gapirib bering.
18. Havo liniyalarini o'ta kuchlanishdan himoyalash qanday amalga oshiriladi?
19. Sinxron generatorlar haqida tushuncha bering.
20. Elektr stansiya va nimstantsiyalarda xususiy ehtiyoj manbalari.
21. Elektr podstantsiyasi nima uchun xizmat qiladi?
22. Elektr energiyani o'zgartirish va taqsimlash uchun nima qilish kerak?
23. Elektr qurilmaning ishonchliligi nima?

24. Qurilmaning belgilangan funksiyalarni talab etilgan vaqt davomida o'zining me'yoriy ko'rsatkichlarini saqlagan holda bajara olish qobiliyati nima deyiladi?
25. Yong'in xavfining darajasi bo'yicha xonalarning zo'nalari necha sinfga bo'linadi?
26. Elekir ta'minotining talab etiluvchi ishonchliligi bo'yicha iste'molchilar nechta toifaga bo'linadi?
27. Taqsimlovchi punkt nima?
28. Yig'uvchi shinalar, belgilangan sondagi yacheykalar va boshhqaruv yo'lagidan iborat bo'lgan seksiyalarga ajratilgan elektr uskunasi;
29. Transformatorli podstantsiyada transformatorlarning soni odatda, nechtagacha bo'lishi mumkin?
30. Elektr tarmog'i korxonasining vazifasi nimadan iborat?
31. O'z qaramog'idagi elektr tarmog'ini ishlatish;
32. Podstantsiyalarga tezkor xizmat ko'rsatishda xizmat ko'rsatishning nechta shakli qo'llanilishi mumkin?
33. Markaziy dispecherlik xizmatida qanday guruhlar mavjud bo'ladi?
34. Holatlar va tezkor-dispecherlik guruhlari;
35. Elektr tarmoqlari korxonasida texnik pasportlar qanday jihozlar uchun tuziladi?
36. Asosiy va yordamchi jihozlarning har bir turi uchun.
37. 1000 V gacha kuchlanishli havo liniyalari daraxtzor va ko'kalamzorlarni kesib o'tganda sim va daraxt yoki butalargacha kamida qancha masofa saqlanishi shart?
38. Havo liniyalarining burilish joylarida burchak tayanchlarining tirsaklari qanday holda joylashtiriladi?
39. Burilish burchagi bissektrisasi bo'ylab nimalarni joylashtirish mumkin?
40. 1000 V gacha kuchlanishli havodagi elektr uzatish liniyalarini ko'rikdan o'tkazish elektr montyor tomonidan qanday davriylikda amalga oshiriladi?

III. 5.53.06.01 - "Mashinasozlik texnologiyasi" mutaxassisligi bo'yicha:

1. "Mashinasozlik texnologiyasi" fanining asosiy maqsadi nima?
2. Yig'ish texnologik jarayonni nima?
3. Po'lat materialda diametri 10 H7 mmli teshikka mexanik ishlov berishda qaysi usul maqsadga muvofiq?
4. Agarda detallarni o'rnatishda bazalarni qo'shilish prinsipini amal qilinsa nima bo'ladi?
5. Bazalarning doimiylik prinsipi nima?
6. Cho'yan materialda diametri 150 H7 mmli teshikka mexanik ishlov berishda qaysi usul qulay?
7. Mexanik ishlov berishdagi tasodifiy xatoliklar qaysi qonuniyatga bo'ysunadi?
8. Mexanik ishlov berishda detalning yuza tozaligi deganda nimani tushunasiz?
9. Kesuvchi asboblarni yeyilishi hisobiga hosil bo'luvchi xatolikni qanday kamaytirish mumkin?

10. Tishli g'ildiraklarning tishlariga mexanik ishlov berish uchun qaysi turdagi kesuvchi asboblardan foydalaniladi?
11. Tishli mexanizmlar nima uchun xizmat qiladi?
12. Metall deb nimaga aytiladi?
13. Metall kesuvchi dastgohlarning nechta guruhi mavjud?
14. Qotishma deb nimaga aytiladi?
15. Zagotovka nima?
16. Cho'yan deb nimaga aytiladi?
17. Po'lat deb nimaga aytiladi?
18. Mashina detallari zagotovkalariga mexanik ishlov berish usullari...
19. Quymalarning turlari.
20. Texnologik jarayon nima?
21. Qaysi turdagi metal kesishda tutash (spiralsimon) qirindi hosil bo'ladi?
22. Kesish chuqurligi ortgan sari kesish jarayonidagi issiqlik hodisasi qanday bo'ladi?
23. Kesish tezligi ortgan sari kesish jarayonidagi issiqlik hodisasi qanday bo'ladi?
24. Mustaxkamlik deganda nimani tushunasiz?
25. Po'latlarni kesib ishlashda qanday qirindi hosil bo'ladi?
26. Tokarlik dastgohini ishlatish qanday holatlarda taqiqlanadi?
27. Dastgohni yurgizishdan avval qanday ish bajariladi?
28. Qanday tekislik kesish tekisligi deb ataladi?
29. Metall kesish dastgohi nima?
30. Metall mexanik ishlov berish jarayonlarida qaysi turdagi o'lchov asboblariidan foydalaniladi?
31. Tokarlik dastgohlarining moslamalariga nimalar kiradi?
32. Keskichning yo'nilayotgan buyumga qaragan yuzalari qanday ataladi?
33. Metallarga ishlov berish dastgohlari necha turga bo'linadi?
34. Rezba kesish asboblari.
35. Tozalab parmalashda ishlatiladigan asosiy kesuvchi asboblari qaysilar?
36. Parmalash dastgohida parma dastgohning qaysi qismiga maxkamlanadi?
37. Tokarlik ishlarida kesish tezligining miqdori qaysi kattaliklarga bog'liq?
38. Tokarlik dastgohida shpindelini aylanishi qanday harakat?
39. Metall kesish dastgohlari qanday belgilariga qarab guruhlarga bo'linadi?
40. Kesish maromlarini hisoblashda qaysi element oldin tanlanadi?

IV. 5.82.01.02 - "Tashishlarni tashkil etish va transportni boshqarish" mutaxassisligi bo'yicha:

1. Neft to'g'risida qisqacha ma'lumot va undan olinadigan mahsulotlar
2. Avtomobilda ishlatiladigan yoqilg'i turlari
3. Dizel yoqilg'isiga qo'yiladigan asosiy ekspluatatsion talablar
4. Avtomobil transportining asosiy afzalliklari

5. Avtomobil transportida harakat tarkibining turlari
6. Yuk va ularning turkumi
7. Shaharlararo yuk tashishda harakatlanuvchi tarkibning harakatini tashkil etish
8. Xalqaro yuk tashish
9. Shaharlararo tashishda avtobusga qo'yiladigan talablar
10. Yo'nalishli transport vositalarining turlari
11. Avtobuslarda yo'lovchi tashish uchun qo'yiladigan talablar
12. Haydovchi va yo'lovchilarning majburiyatlari
13. Piyoda va ularning majburiyatlari
14. Logistika tushunchasi
15. Logistikaning rivojlanish bosqichlari
16. Ishlab chiqarish logistikasi
17. Logistika tizimi samaradorligi va uning kontseptsionalari
18. Transport logistikasi
19. Omborlar logistikasi
20. Logistika tizimi samaradorligi va uning kontseptsionalari
21. Yo'l-transport hodisasi sodir etgan haydovchilarning vazifalari
22. Yo'l belgilari
23. Avtomobilning rivojlanish tarixi
24. Avtomobillarning umumiy tuzilishi
25. Avtomobil dvigatellarining umumiy tuzilishi va klassifikatsiyasi
26. Moylash tizimi
27. Sovutish tizimi
28. Ta'minlash tizimi
29. O't oldirish tizimi
30. Krivoship shatun mexanizmi
31. Gaz taqsimlash mexanizmi
32. Transmissiya qismlari
33. Rul boshqarmasi
34. Tormoz boshqarmasi
35. Avtomobil elektor jihozlari
36. Generatorning vazifasi
37. Akkumulyator batareyasi
38. Elektron o't oldirish tizimi
39. Yo'l chiziqlari
40. Svetofoor va tartibga soluvchining ishoralari
41. Ogohlantiruvchi va falokat ishoralari
42. Quvib o'tish
43. Chorraxa turlari
44. Tartibga solingan chorraxa
45. Tartibga solinmagan chorraxa
46. Haydovchi madaniyati
47. Mexanik transport vositalarini shatakka olish usullari
48. Qaysi hollarda transport vositasidan foydalanish taqiqlanadi
49. Turli yo'l sharoitlarida avtotransport vositalaridan foydalanish
50. Maxsus transport vositalari

1. Kompyuter tarmog'ini vujudga kelish tarixini aytib bering
2. Kompyuter tarmog'i nima?
3. Kompyuter tarmog'i texnologiyalari haqida gapirib bering (Ethernet va Token-ring)
4. Tarmoq topologiyasi nima?
5. Kompyuterlar soniga qarab tarmoqlar qanday turlarga bo'linadi?
6. Bir binoda yoki bir-biriga yaqin binolarda joylashgan kompyuterlarda o'zaro axborot almashish imkonini beruvchi tarmoq qanday nomlanadi?
7. Bir binoda yoki bir-biriga yaqin binolarda tarmoq kabeli yordamida kompyuter tarmog'ini samarali tashkillashni tushuntirib bering
8. Biror tuman, viloyat yoki respublika miqyosidagi kompyuterlarni o'zida mujassamlashtirgan tarmoq qanday nomlanadi?
9. Lokal xisoblash tarmoqlarining qurishda asosan qanday texnik vositalar kerak bo'ladi?
10. OSI modeli haqida gapirib bering
11. Tarmoq protokoli haqida gapirib bering
12. Operativ xotira va uning xarakteristikalarini tushuntirib bering
13. Doimiy xotira va uning turlarini aytib bering
14. Operatsion tizim haqida aytib bering
15. Windows 11 operatsion tizimini imkoniyatlari haqida ma'lumot bering
16. MS Wordda ishlay olish ko'nikmasini (mustaqil ish uchun titul varog'i misolida) ko'rsatib bering
17. MS Accessda biron korxonaning ma'lumotlar bazasini yaratib bering (ixtiyoriy usulda)
18. MS Excelda diagramma yaratib bering
19. Elektr ta'minot blogi qanday profilaktika qilinadi?
20. Printer qanday qurilma hisoblanadi va uning asosiy funksiyasi nimadan iborat?
21. Kompyuter yaratilish tarixi haqida gapirib bering
22. Kompyuterning asosiy qismlari (ona plata, blok pitaniya, protsessor, vinchester, video karta, tezkor hotira qurilmasi) haqida qisqacha gapirib bering
23. Axborot deganda nimani tushunasiz va 21-asrda axborotning o'rni haqida gapirib bering
24. Xavfsiz axborot almashinuv turlari (shifrlash deshifrlash)
25. Domenlar nima va ularning turlari
26. Virtual mashina dasturlari
27. Simsiz Kompyuter tarmoqlari nima?
28. Wi-Fi texnologiyasi haqida gapirib bering
29. Ma'lumotlarni kompyuter tarmog'ida bitta kompyuterdan boshqasiga uzatish paytida kompyuter va aloqa kanali ishini muvofiqlashtiruvchi plata shaklida yaratilgan moslashtirgich qanday nomlanadi?
30. Tarmoq operatsion sistemasini vazifalarini aniqlang
31. Tarmoqlar tipini kompyuterlar sonining ortib borish tartibida joylashtiring
32. Internet serveri qanday imkoniyatlarni beradi?
33. Tanlangan belgilarning tagiga bitta chiziq chizish uchun qanday klavisha

ishlatiladi?

34. Kompyuterning uzoq muddatli xotirasida saqlanayotgan berilganlar va ular ustida aniq amallarni bajarishga imkon beradigan ma'lumotlar yig'indisiga nima deb ataladi?
35. Hozirgi vaqtda o'ralgan juftliklardan qanday tezlikda axborot uzatish uchun ishlatilmoqda?
36. Radiokanal – bu axborotni uzatish uchun nimalardan foydalaniladi?
37. Vektorli grafikaning asosiy elementi nimadan iborat?
38. Kompyuter o'chirilganda qaysi axborotlar yo'qoladi?
39. Axborotning qanday turlari mavjud?

V. 5.52.01.02 - “Dasturiy injiniring” mutaxassisligi bo'yicha:

1. Asosiy algoritmik tuzilmalar.
2. Dasturlash tillari va usullari.
3. Kompyuter tarmoqlarining tasnifi.
4. Tarmoq kabellarining turlari va xususiyatlari.
5. Operativ xotira qurilmasi.
6. Qattiq va optik disklar.
7. HTML xujjat tuzilishi.
8. Ro'yhatlar va giperssilklar.
9. Forma komponentlari bilan ishlash.
10. Kompyuter viruslari. Viruslardan himoya qilish muammolari.
11. Virusga qarshi mudofaa tizimini yaratish.
12. O'zgaruvchi. O'zgaruvchi turlari.
13. Shart va sikl operatorlari.
14. Internetga ulangan buyumlarni dasturlash asoslari IoT.
15. Arduino IDE.
16. Belgilash tillari haqida.
17. Web-form yaratish.
18. MBBT tushunchasi va uning modellari.
19. SQL tili asoslari va xossalari.
20. Ma'lumotlar bazasini loyihalashning asosiy bosqichlari.
21. Tarmoq bilan ishlash. Xizmatlar.
22. Aloqa va telefoniya.
23. Cssning vazifasi va qo'llanilishi.
24. Css uslubida bezatilgan web sahifalar.
25. Bootstrap freymvorki.
26. Ma'lumotlar bazasini loyihalash.
27. Mobil ilovaning tarkibiy qismlari.
28. Ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash.
29. Mobil qurilmalarning multimedia imkoniyatlaridan foydalanish.
30. HTML da jadvallar.
31. HTML da forma hosil qilish.
32. Aloqa liniyalarining tarkibi va xususiyatlari.
33. Kompyuterni yig'ish uchun komponentlarni tanlash.

34. Kompyuter qismlarining profilaktikasi.
35. Axborot xavfsizligi bo'yicha normativ hujjatlar bazasi.
36. Korxonada axborotni himoya qilishning amaliy dasturiy ta'minoti.
37. Korxoning virusga qarshi himoya tizimini yaratish.
38. Javascript ssenariylar tili.
39. Elektron to'lov tizimlari.
40. Web forumlar.

VI. 5.53.02.01 - “Geodeziya va kartografiya” mutaxassisligi bo'yicha:

1. Geodeziya fanining ahamiyati nimalardan iborat?
2. Geodezik o'lchash ishlarida yer yuzida qanday elementlar aniqlanadi?
3. Referens-ellipsoid nima?
4. Nuqtaning geodezik uzoqligi nima?
5. Nuqtani geodezik kengligi nima?
6. Direksion burchak nima?
7. Rumb nima?
8. Karta nima?
9. Plan nima?
10. Profil nima?
11. Asbob gorizonti nima?
12. Topografik syomkada qanday ish bajariladi?
13. Meridianlar deb nimaga aytiladi?
14. Areallar usuli deb nimaga aytiladi?
15. Kartogramma usuli deb nimaga aytiladi?
16. Gorizantallar nima?
17. Toponimika nima?
18. Generalizatsiya deb nimaga aytiladi.
19. Legenda nima?
20. Kartografik manbalar necha xil bo'ladi?
21. Yerning yadrosi qanday xususiyatga ega?
22. Fotogrammetriya fani nimalarni o'rgatadi?
23. Stetoskop bu-
24. Aerosyomka qanday turlarga bo'linadi?
25. Fotoplan bu:
26. Binokulyar qanday ko'rish?
27. Monokulyar nima?
28. Transformatsiyalash deb nimaga aytiladi?
29. Fototriangulyatsiya deb nimaga aytiladi?
30. Koordinatalar – bu?
31. Piksel nima?
32. Ma'lumotlar modeli – bu?
33. Geoaxboro tizim nimadan iborat?
34. Yer mantiyasi nechta qatlamdan iborat?
35. Yer po'sti nechta qatlamdan iborat?
36. Mineral deganda nimani tushunasiz?

37. Geomorfologiya atamasining ma'nosi qanday?
38. Yerning ichki geosferalari qanday qatlamlardan tashkil topgan?
39. Teodalitni tekshirish shartlari qanday?
40. Nivelirni tekshirish shartlari qanday?

VII. 5.51.05.01 - Avtomobil transportiga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash mutaxassisligi bo'yicha

1. Avtomobil qanday qismlardan tashkil topgan?
2. Avtomobilning boshqaruv qismiga nimalar kiradi?
3. Texnik xizmat ko'rsatish turlari?
4. Tashxislash turlari (diagnostika)?
5. Avtomobil so'zining ma'nosi?
6. Shassi tarkibiga qanday qismlar kiradi?
7. Avtomobilning yurish qismi nimalardan iborat?
8. O'zbekistonda avtomobilsozlik taraqqiyoti?
9. Klassik komponovka deganda nimani tushunasiz?
10. Rul va tormoz boshqarmasi avtomobilning qaysi qismiga tegishli?
11. Shassi deganda nimani tushunasiz?
12. Transmissiya qanday agregatlardan iborat?
13. Transport turlari?
14. Takt nima?
15. Yengil avtomobillar qaysi belgisiga ko'ra klasslarga bo'linadi?
16. Yuk avtomobillari qaysi belgisiga ko'ra klasslarga bo'linadi?
17. Avtobuslar qaysi belgisiga ko'ra klasslarga bo'linadi?
18. Avtomobilning to'la massasi deganda nimani tushunasiz?
19. Avtomobilning shaylangan massasi deganda nimani tushunasiz?
20. Hidrokompensator nima?
21. Ishchi aralashmaning tarkibi va miqdori?
22. GTMning vazifasi?
23. KShMning vazifasi?
24. Ichki yonuv dvigatelining vazifasi nimadan iborat?
25. Dizel dvigateli bilan karbyuratorli dvigatelining asosiy farqi nimada?
26. Siqish darajasi nimani bildiradi?
27. Nega ichki yonuv dvigateli deb ataladi?
28. Dvigatel nechta mexanizm va tizimlardan iborat?
29. Dizel so'zining ma'nosini ayting?
30. SOHC dvigateli deganda nimani tushunasiz?
31. DOHC dvigateli deganda nimani tushunasiz?
32. Moylash tizimidagi reduksion klapaning vazifasini ayting?
33. Silindrning to'la xajmi deganda nimani tushunasiz?
34. Krivoship shatun mexanizmi qanday qismlardan tashkil topgan?
35. Gaz taqsimlash mexanizmi qanday qismlardan tashkil topgan?
36. Radiatorning vazifasi?
37. Termostatning vazifasi?
38. Sovutish tizimining vazifasi?
39. Avtomobil yurish qismiga nimalar kiradi?

40. Ilashish muftasining vazifasi?
41. Uzatmalar qutisi vazifasi?
42. Motor moyini almashtirish texnologiyasi?
43. AKB uchraydigan nosozliklar va uning alomatlari?
44. Injektorli avtomobillar ta'minlash tizimiga TXK va JT texnologiyasi?
45. Generator vazifasi?
46. Startyorning vazifasi?
47. Detonatsiya nima?
48. Pnevmatik tormoz tizimi?
49. Gidravlik tormoz tizimi?
50. Tormoz turlari?

VIII. 5.53.10.01 – “Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasi va texnologiyasi” mutaxassisligi bo'yicha

1. Gazlamalar assortimentining umumiy tafsiloti
2. To'qimachilik tolalari va ularning olinishi
3. Gazlamalarning asosiy xossalari
4. Kiyim haqida umumiy ma'lumot
5. Odam gavdasi haqida umumiy ma'lumot
6. Kiyimni loyihalash asoslari
7. Bolalar kiyimlarining tavsifi
8. Kiyim funksiyasi
9. Tikuv buyumlarini biriktirish usullari
10. Yoqa tikish va uni yoqa o'miziga o'tkazish
11. Shim detallariga ishlov berish
12. Kiyim tikishning asosiy bosqichlari
13. Tikuv mashinalari ishlashiidagi nuqsonlar
14. Tikuv mashinalarini asosiy ishchi mexanizmlari
15. Keng imkoniyatli tikuv mashinalarining igna mexanizmlari
16. Kompozitsiyada statiklik va dinamiklikni yaratish
17. Simmetriya va assimmetriya tushunchalari
18. Kostyum kompozitsiyasida illyuziya
19. O'quv ustaxonasida mehnatni muhofaza qilish
20. Baxtsiz xodisa ro'y berganda birinchi yordam ko'rsatish
21. Erkaklar ko'ylagiga ishlov berish texnologiyasi.
22. Yelimli materiallar haqida umumiy ma'lumot.
23. Termoplastik materiallarni payvandlash usullari
24. NIIB usullari
25. NIIBda islatiladigan jihozlar
26. Xalatlarda ostki va ustki yoqa ishlov berish
27. Xalat yengiga ishlov berish va yeng o'miziga o'tqasish
28. Yubka tikish texnologiyasi
29. Kiyim detallariga boshlang'ich ishlov berish
30. Ust kiyim yoqasiga ishlov berish
31. Ust kiyim yengiga ishlov berish
32. Ust kiyim bortiga ishlov berish
33. Bort qotirmasiga ishlov berish

- 34 . Qoplama cho'ntakka ishlov berish
35. Qopqoqli qirqma cho'ntakka ishlov berish
- 36 . Listochkali qirqma cho'ntakka ishlov berish
- 37 . Ikki mag'izli qirqma chontakka ishlov berish
- 38 . Chokdagi cho'ntakka ishlov berish
- 38 Kostyum kompozitsiyasi pitm tushunchasi
40. Texnologik ketma- ketlik tuzish

IX.5.54.02.01 - “Bino va inshootlar qurilishi” mutaxassisligi mutaxassisligi bo'yicha

- X.** Qurilish jarayonlar texnologiyasi deganda nimani tushinasiz ?
- XI.** Teodalitni vazifasi nima?
- XII.** Binoning konstruktiv elementlarida kelib chiqishi bo'yicha darzlarning qanday turlari mavjud?
- XIII.** Qum, shag'al va tuproq tog' jinslarini qaysi guruhiga kiradi?
- XIV.** Yengil betonga to'ldiruvchi sifatida nima ishlatiladi?
- XV.** Portlandsement klinkerini xosil bo'lish haroratini ko'rsating?
- XVI.** Nam muhitda ishlovchi konstruksiyalarni suvashda qanday qorishma ishlatiladi?
- XVII.** Temirbeton buyumlarini stend usulida ishlab chiqarish boshqa usullardan nimasi bilan farq qiladi?
- XVIII.** Bino qirqimi deganda nimani tushinasiz?
- XIX.** Bog'lovchi suv, mayda va yirik to'ldiruvchilarni samarali tarkibini tanlab bir xil holga keltirish aralashtirish natijasida xosil bo'lgan qorishma qotgandan so'ng paydo bo'lgan sun'iy tosh nima?
- XX.** Tom qoplamasi qiyaligi nimaga bog'liq?
- XXI.** Yog'ochli qavatlararo yopmalarning yuk ko'taruvchi konstruksiyalari nimalardan iborat?
- XXII.** Zilzilaviy xududlarda yuk ko'taruvchi devorlarga qanday choralar bo'lishi kerak?
- XXIII.** Zilzilaviy hududlardagi qavatlararo yopmalar zilzila bo'lmaydigan hududlardagi qavatlararo yopmalardan nimasi bilan farq qiladi?
- XXIV.** Zinalarning asosiy vazifasi nimalardan iborat?
- XXV.** Suyuq shisha ishlab chiqarishda qanday xomashyodan foydalaniladi?
- XXVI.** Qurilish qorishmasini markasi namuna necha kun qotgandan so'ng aniqlanadi?
- XXVII.** Yengil betonga to'ldiruvchi sifatida nima ishlatiladi?
- XXVIII.** Temirbeton buyumlarini oqim agregat usulida ishlab chiqarish boshqa usullardan nimasi bilan farq qiladi?
- XXIX.** Engil g'ishtlar qanday materiallardan tayyorlanadi?
- XXX.** Bino ichi qanday maqsadlarda plitka bilan koshinlanadi?
- XXXI.** Akustika materiallari qanday maqsadda ishlatiladi?
- XXXII.** Defekt nima?
- XXXIII.** Teodolit bilan ishlash tartibi qanday?
- XXXIV.** Beton mustaxkamligiga qaysi faktorlar ta'sir qiladi?
- XXXV.** Nivelir nima uchun ishlatiladi?
- XXXVI.** Temirbeton deb qanday qurilish materialiga aytiladi?

- XXXVII.** Qoziqsimon poydevorlar qayerlarda ishlatiladi?
- XXXVIII.** Nam muxitda ishlovchi konstruksiyalarni suvashda qanday qorishma ishlatiladi?
- XXXIX.** Polimersilikat nima?
- XL.** Ruberoid deb qanday materialga aytiladi?
- XLI.** Qurilishni industrlashtirish deganda nimani tushunasiz?
- XLII.** O‘zbekiston uchun ko‘p qavatli turar-joy binolarida qavat balandligining maksimal qiymatini qancha belgilangan?
- XLIII.** Turar-joy binolarini loyihalashda tabiiy iqlim sharoitining axolining hayot tarziga ta’sirini hisobga olish qanday talablarga asoslanadi?
- XLIV.** Turar-joy binosidagi qavatlar soni qancha bo‘lganda lift qo‘llaniladi?
- XLV.** Konstruktiv sxemasi bo‘yicha poydevorlar qanday turlarga bo‘linadilar?
- XLVI.** Binolarning qanday konstruktiv sxemalari mavjud?
- XLVII.** Qurilishda standartizatsiya deganda nimani tushunasiz?
- XLVIII.** Bajarilish texnologiyasi bo‘yicha poydevorlar qanday turlarga bo‘linadilar?
- XLIX.** Tom va tom qoplamalari qanday turlari mavjud?

L. 5.54.06.01 - Avtomobil yo‘llari, ko‘priklar va aeradromlar qurilishi mutaxassisligi bo‘yicha

1. Avtomobil yo‘l nima?
2. Avtomagistral nima?
3. Avtomobil yo‘llari necha toifaga bo‘linadi?
4. Avtomobil yo‘lining qoplama materialiga ko‘ra qanday turlari mavjud?
5. Avtomobil yo‘llari ahamiyatiga ko‘ra qanday belgilanadi?
6. Avtomobil yo‘llari asosiy elementlari nimalardan iborat?
7. Viraj nima?
8. Avtomobil yo‘llaridagi sun‘iy inshootlar nimalar kiradi?
9. Yo‘l poyi nima?
10. Yo‘l tashmasi nimalardan iborat?
11. Ko‘priklar uzunligiga ko‘ra necha turli bo‘ladi?
12. Ko‘priklar tuzulishiga ko‘ra turlari?
13. Drenajlar vazifasi nima?
14. Avtomobil yo‘llarini qurilish qanday bosqichlardan iborat?
15. Avtomobil yo‘lining transport ekspluatasion ko‘rsatkichlari nimalardan iborat?
16. Avtomobil yo‘llarni ta’mirlash va saqlash ishlarini turlari?
17. Avtomobil yo‘llarini saqlash va ta’mirlash xizmatini asosi masalalari nimalar?
18. Buldozer yordamida harsang toshlarni optimal surish masofasi?
19. Skreper bilan guruntlarni optimal tashish?
20. Tuproq ishlarini bajarish muddati qaysi omillarga bog‘liq?
21. Avtomagistral qoplamalari qanday aralashma qoplamalaridan quriladi?
22. Qaysi haroratda asfaltbeton qorishmasini yo‘lga yotqiziladi?
23. Asfaltbeton qoplamasini zichlashda katokni bir izdan necha marotaba harakatlanadi?
24. Shag‘alni o‘ziga xos xususiyatlari?

25. Avtomobil yo'lini qurishda qanday xususyatlarga ko'ra karer tanladadi?
26. Avtomobil yo'lini qurishda ishlatiladigan gruntning haqida ma'lumot bering?
27. Anorganik bog'lovchi materiallarning o'ziga xos xususyatlari?
28. Sementa beton va uni qo'llanilishi?
29. Asfalbeton tarkibi va uni turlari?
30. Bog'lanmagan donador diskret xoldagi gruntlarni zichlashda qanday mashinadan foydalanadi?
31. Bog'langan gruntlarni zichlashda yuqori samaradorlik kator turini ko'rsating?
32. Qaysi gruntlar yo'l poyini qurish uchun umuman yaroqsiz?
33. Necha xil usul bilan o'yma qurish mumkin?
34. Yo'l poyini pardozlash ishlariga nimalar kiradi?
35. Bog'langan gruntlardan yo'l poyini qurishda ishlatiladigan o'ziga hos xususiyatlar?
36. Gruntlarni yumshatishdan ko'zlangan maqsad nimadan iborat?
37. Yo'l poyini qurishda qanday harorat qurish maqsadga muvofiq?
38. O'simlik qatlami gruntning qanday mexanizim bilan kovlaydi?
39. Texnologik karta qachon ishlatiladi?
40. Suv bug'i o'tkazmaydigan qavat qayerga yotqiziladi?